

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI



**«ZAMONAVTY TILSHUNOSLIK YO'NALISHLARI VA CHET
TILLARINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR»**

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIV-AMALIY ANJUMAN



**«СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ЯЗЫКОЗНАНИЯ И
ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В ОБУЧЕНИИ
ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ»**

МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ



**“MODERN TRENDS IN LINGUISTICS AND INNOVATIVE
APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES”**

PROCEEDINGS INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE



ANDIJON-2024. 10-IYUN

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI



«ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK YO'NALISHLARI VA CHET
TILLARINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR»

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN



«СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ЯЗЫКОЗНАНИЯ И
ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В ОБУЧЕНИИ
ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ»

МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ



“MODERN TRENDS IN LINGUISTICS AND INNOVATIVE
APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES”
PROCEEDINGS INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL
CONFERENCE

2024-YIL 10-IYUN

ANDIJON – 2024

Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 18-yanvardagi “2024-yilga mo‘ljallangan xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 16-sonli buyrug‘i, shuningdek, mamlakat ilm-fani nufuzini yanada oshirish va xalqaro ilmiy-texnik hamkorlik ko‘lamini kengaytirishga qaratilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpozium, kongress, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlarni yuqori ilmiy va tashkiliy amaliy darajada samarali o‘tkazilishini ta‘minlash maqsadida Andijon davlat chet tillari institutida “Ingliz tili nazariy aspektlari”, “Ingliz tili va adabiyoti” hamda “Ingliz tili amaliyoti” kafedralari tomonidan “Zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlari va chet tillarini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazildi.

Mas‘ul muharrir(lar):

f.f.n., prof. S.O.Solijonov

Tahrir hay‘ati:

f.f.d.prof. D.A.Rustamov
f.f.d.prof. M.I.Umarxo‘djayev
PhD. dots. M.A.Qurbonov
f.f.d.prof. G‘.M.Xoshimov
f.f.d.prof. V.A.Vositov
PhD. dots. M.G‘.Xoshimov
p.f.n. prof. Sh.S.Alimov
PhD. G.M.Ibragimova
PhD. Q.Umrzakov
kafedra o‘qituvchisi N.Xamidov
kafedra o‘qituvchisi Z.No‘monova

Tahrir nashriyoti bo‘limi muharriri:

A.A.Xomidov

Ilmiy-amaliy konferensiya materiallariga oid mazkur to‘plam, tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlari va chet tillarini o‘qitishdagi innovatsion yondashuvlar hamda ulardagi dolzarb masalalarga bag‘ishlanligi bilan ahamiyatlidir.

Mazkur to‘plamdan respublika va xorijiy oliy ta‘lim muassasalarida hamda ilmiy-tadqiqot markazlarida faoliyat olib borayotgan olimlar, professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, magistrlar va iqtidorli talabalarning ilmiy maqolalari joy olgan.

To‘plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar va me‘yoriy hujjatlar sanasining to‘g‘riligiga mualliflarning o‘zlari mas‘uldirlar.

Andijon davlat chet tillari instituti, 2024-yil

11. Kim, Soo-Yeon. "Globalization and Cultural Exchange: The Impact of Hallyu." *Asian Cultural Studies*, vol. 27, no. 4, 2021, pp. 456-472.
12. Lee, Jonathan. "Cryptocurrencies: The Evolution of Digital Finance and Its Linguistic Impact." *Journal of Economic Terminology*, vol. 29, no. 3, 2022, pp. 205-223.
13. Martin, Rachel. "Gentrification and Its Discontents: Urban Policy and Socioeconomic Changes." *Urban Studies Journal*, vol. 58, no. 6, 2021, pp. 1231-1247.
14. Morris, Linda. "The Psychological Impact of Doomscrolling: An Emerging Concern." *Mental Health Review*, vol. 56, no. 4, 2022, pp. 198-213.
15. Norton, James. "The Ethical Dilemma of Deepfakes: Technology and Truth in the Media Age." *Journal of Media Ethics*, vol. 38, no. 1, 2023, pp. 54-70.
16. Thompson, Rachel. "Understanding Hangxiety: Alcohol, Anxiety, and Aftereffects." *Journal of Behavioral Health*, vol. 22, no. 3, 2022, pp. 338-352.

Taqlidiy so'zlarning fonetik xususiyatlari

Ziyaev Avaz Ixtiyorovich

Qo'qon davlat pedagogika instituti,
ingliz tili va adabiyoti kafedrası
professori, filologiya fanlari doktori

Mohidil Sharipova

Qo'qon davlat pedagogika
instituti doktoranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada taqlidiy so'zlar predmet va hodisa tovushlarining, harakat va holatlarining shartli ravishdagi ko'rinishi sifatida maydonga kelganligi, o'zbek tilida taqlidiy so'zlar fonetik shakllanish jihatidan juda boy va rang-barang xususiyatga ega ekanligi, har bir tildagi taqlidiy ifoda shu til so'zlovchilarining artikulyatsion imkoniyatlarini, tilning fonetik ko'lamini namoyon etishi xususida atroflicha fikr yuritadi.*

Kalit so'zlar: *onomatopiya, taqlid soz, fonosemantika, ubli, undosh, fonetik shakl, tovush o'zgarishi*

Ma'lumki, taqlid so'zlar jahon tilshunosligida, xususan, ingliz va rus tilshunosligida N.M.Shanskiy A.A.Kononov, S.Voronin, N.I.Ashmarin, I.V.Arnol'd, X.Bredin, E.Laing kabi olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lsa, o'zbek tilshunosligida N.Mahmudov, Sh.R.Hakimova, R.Qo'ng'urov, S.Mutallibov, A.Isxoqov, Yo.Abdurasulovlar tadqiqotlariga ob'ekt bo'lgan.

X.Bredinning nuqtai nazariga ko'ra, taqlidlar (onomatoplar) "tilshunoslikda lisoniy kontekstda tovushga imitatsiya qilish natijasida yuzaga keluvchi tovush simvolizmi yoki tovush birikmasi sifatida yuzaga kelgan". E.Laing esa taqlidning bevosita grammatik vazifasi va semantik xususiyatlari borasida "onomatop birlik g'oyani fonologik kontekstda ifodalashga xizmat qiladi, shunday ekan, ushbu so'z hech qanday lug'aviy ma'noga ega emas"ligini qayd etadi. Ana shu tarzda ingliz

tilshunosligida taqlidiy ifodalar mustaqil lug'aviy ma'noga ega emas, uning ma'nosi kontekst tarkibida anglashiladi, degan qarash mavjud bo'lib, taqlidiy so'zlar fonologik belgilar birikmasi va ular tabiatdagi tovushlarga taqlid orqali hosil bo'lganligi e'tirof etiladi. Rus tilshunosligida fonosemantik g'oyalar uchun aynan taqlidlar asos bo'lgan.

O'zbek tilshunosligida taqlidiy so'zlar tadqiqini tarixan uch davrga ajratish mumkin. Birinchi davr tadqiqotlarida taqlidiy ifodalar morfologik qatlamda undovlar sirasiga kiritiladi. Tilshunos olim A.A.Kononov ham shu fikrni quvvatlaydi [3; 45-46]. Keyinroq esa taqlidlar undovlardan ajratilib na mustaqil so'zlar, na nomustaqil so'zlar sifatida e'tirof etildi, balki alohida, ya'ni oraliq so'zlar sifatida guruhlandi. Bu davrda taqlidiy ifodalar tasviriy so'zlarga oidligi haqidagi nazariyalar ustuvorlik qildi. Hozirda o'zbek tilshunosligida taqlidiy ifodalarning tadqiqiga semantik aspektda yondashilmoqda. Bu birliklarning kontekstual ma'nosi, etimologiyasi va tillardagi tipologiyasi bosh masalalardan sanaladi. Shuningdek, taqlidiy so'zlarning uslubiy vazifalari ham matn tilshunosligining muhim masalalari qatoridan o'rin oldi.

Taqlidiy so'zlar predmet va hodisa tovushlarining, harakat va holatlarining shartli ravishdagi ko'rinishi sifatida maydonga keladi [5; 74]. O'zbek tilida taqlidiy so'zlar fonetik shakllanish jihatidan juda boy va rang-barang xususiyatga ega. Taqlidiy so'zlar tovush sistemasining tabiatdagi taklid qilinayotgan tovush bilan o'xshashligi borligini inkor qilish mumkin emas. Shuning uchun ham ular sostavidagi har bir unli yoki undosh tovush o'ziga xos xususiyat kasb etadi [4; 12-13]. Bu jihatdan taqlidiy so'zlarning fonetik tabiatini o'rganish alohida ahamiyatga ega. Taqlidiy so'zlar sostavida ishlatiladigan tovushlarni, ularning sistemasini kuyidagicha xarakterlash mumkin:

1. Unli tovushlar. Taklidiy so'zlar sostavidagi unli tovushlar tovushning asosan tembr jihatidan kuchli-kuchsizligini anglatish uchun xizmat qiladi. Tovushga taklid so'zlarda a, o, i, u, o' unilari ko'proq ishlatiladi, ularda e unlisi va yo, ya, yu kabi tovushlar uchramaydi. Unli tovushlar, ko'pincha, so'zning o'rtasida kelib, ma'no har xilligini hosil kiladi: so'z o'zagida keng unililar a, o va o'rta keng unli o' kelsa, taklid kilinayotgan tovushni nisbatan ancha kuchliligini yoki predmetiig hajm jihatidan ham kattarok yoki ko'prok ekanligini bildiradi; tor unililar u, i taklidiy so'zlarning unga nisbatan kuchsizrok, kichikrok va hajm jihatidan kamrok narsaning tovushiga takliddan paydo bo'lgan.

Masalan: Bektemir sovuqdan bezgakday titrar, ozgan, qotgan badanini panjasi bilan shaq-shaq urardi (Oybek). Nariroqda birdan o't shitirladi, atrofga nimadir shiq-shiq qilib tusha boshladi (Oybek). Unlilarning almashib, yangi so'z hosil qilish hodisasini yangi leksema sinonimlarning paydo bo'lish yo'llaridan biri deb ham qarash mumkin. O'zbek tilida taqlidiy so'zlarning boshlanishi va oxirida unli tovushlarning kelish hollari juda kam uchraydi [1; 32]. Ikki tovushdangina tashkil topgan juda ham oz bir bo'g'inli taqlidiy so'zlarning goh boshlanishida, goh oxirida unli tovushlar kela oladi: Hu-g'u, qu-qu, ku-ku, uv, ak-ak kabilar. Qaysi bir kavakda chumchuq bolalari chirqillaydi, tomdan kaptarlarning o'ksiz „hu-zu, hu-zu“lari eshitilib qoladi (Oybek). Yana ko'zlar battarroquv tortgan, xunuk, ochofat, vahshiy dahshatning ho'mraygan ufqlarida aylanadi (Oybek).

Taqlid qilinayotgan tovush davomli ekanligini bildirish uchun taqlidiy so'z sostavidagi unli tovush cho'zibroq talaffuz qilinadi. Bu esa gaats-gaats, mo-o-o, ba-a-a kabi. Lekin bu o'rindagi unlilarning talaffuz etilishini boshqa turk tillardan va ba'zi o'zbek dialektlaridagi ta:a (tog') tipidagi cho'ziq unlilar bilan tenglashtirish yaramaydi. Hatto, bularni cho'ziq unlilar deyish mumkin ham emas. Taqlid qilinayotgan holatning intensivligini bo'rttirib ko'rsatish va unga ekspressiv tus berish maqsadida bir unli orttiriladi. Masalan: sharaqa-shuruq, taqa-taq, gursa-gurs kabilar.

1. Undosh tovushlar. Tovushga taqlid so'zlar sostavidagi undosh tovushlarning xususiyatlari yana ham xilma-xildir. Taqlidiy so'zlarning ma'nolarini belgilashda undosh tovushlar ko'p jihatdan yetakchi vasifani bajaradi. Agar tovushga taqlid so'zlar portlovchi undoshlar bilan tugasa (sharq, shart, gup, tap, chirq kabi), tovush keskinligini yoki uni qisqa-qisqa bo'linib takrorlanishini bildiradi. Ammo ular r, v, z, g, j, m kabi sirg'aluvchi undoshlar bilan tugaganda esa yuqoridagi keskinlik ma'lum darajada bo'shashadi: chir, chig, zuv, vij, viz, sharr kabi: Machitdagi keksa baqaterak orqasidan ko'tarilgan qizgich o't ko'kda olovli iz qoldirib, juda yuqoriladi va go'yo osmonga urilganday chilparchin bo'lib po'p etda (A. Qahhor). To'g'onbek daricha orqali tashqariga „chirt“ etib tupurdi-da, soyaga razm solib, Dildordan xabar olish uchun qo'zgaldi (Oybek). Xotin haram darvozasi yoniga yetib, ostonaga qadam bosgan chogida bo'sagadagi yigit vishsh ettirib qilichini qinidan sugurdi (A. Qodiriy). Misollardagi po'p, chirt, paq, shaq kabi taqlidiy so'zlarning oxirgi tovushini xohlagancha cho'zib talaffuz qilish mumkin emas. Chunki bu taqlidiy so'zlar oxiridagi q, t, p kabi tovushlarni talaffuz qilishda ishtirok etuvchi nutq organlarining holati, artikulyatsion xususiyat ovozini yana davom ettirishga yo'l bermaydi: portlash hosil bo'lib, ovoz kesiladi. Shuning uchun ham tovushga taqlid so'zlar ma'nosidagi cho'ziqlikni ko'rsatishda ko'pincha r, z, v, g, sh kabi undoshlarning qavatlashishidan foydalaniladi. Chunki ularni xohlagancha cho'zib talaffuz qilish mumkin: Bektemir orqada nimaningdar ho'mmm... deganini eshitdi (Oybek).

Shunday undosh tovushlar ham borki (r, v, z, l, j), ular hozirgi o'zbek adabiy tilida sof o'zbek so'zlari boshida kelmaydi. Taqlidiy so'zlarning boshida esa, r tovushidan boshqa, ularning hammasi tez-tez uchrab turadi: vaq-vaq, valdir-valdir, vang-vang, viz-viz, jangir-jungur, jarang-jurung, jaraq-jaraq, jir-jur, jag-jag, jimir-jimir, jiq-jiq, jovdir-jovdir, zir-zir, zirq-zirq, zuv-zuv, laq-laq, lov-lov, lop-lop, lo'k-lo'k, lip-lip va boshqalar.

Taqlidiy so'zlarning fonetik shakllanishi boshqa kategoriya so'zlardan farkdanadi. Bularga qo'shimcha ravishda taqlidiy so'zlarda ishlatiladigan undosh tovushlarning qattiq, yumshokligi va bu hodisaning ma'noga munosabati masalasini ham ko'rsatish mumkin [2; 32-34]. Umuman, o'zbek tilida p,b,f, t,s,d,n,m,r,l kabi undoshlar oldingi qator unlilari bilan yondosh kelganlarida yumshoqlashadi. Taqlidiy so'zlarda esa bu undoshlarning yumshoqlashishi ko'pincha i unlisi yondosh kelganda yuz beradi: par, lop-lop, shaldir-shaldir, jaz-jaz, varaq-varaq, tars-tars, pir, lip-lip, shildir-shildir, jiz-jiz, vish-vish, tirs-tirs va hokazo.

Lim-lim suvdan uzolmayman ko'z,

To'lqinlarda tirik hayajon.

Quyosh, million va myllion yulduz,

Bo'libunga sochilgan marjon (Zulfiya).

O'zbek tilida q-k, p-b, t-d kabi undoshlar unli bilan yondosh kelishidan qat'iy nazar, qattiq, yumshoqlik jihatidan bir-biridan farqi sezilib turadi. Hatto ular o'rtasidagi farq rus tilidagi l-ль, k-кь, p-рь, t- ть kabi tovushlar o'rtasidagi kattiq-yumshoqdigiga nisbatan ham ancha sezilarlidir: qars, qult, pilch-pilch, jiq-jiq, tuq-tuq, kars, qilt, bilch- bilch, jiq-jiq, duk-duk va boshqalar. Ayollarning ko'zlariga jiq-jiq yosh keldi (Oybek). Yo'lakda u yoqdan bu yoqqa o'tib qolsa, qadamining duk-duki xuddi jonimni sugurib oladigandek bo'ladi (S. Anorboev).

Hozirgi o'zbek adabiy tilida tovushga taqlid so'zlarning boshlanishi uchun asosan v, d, j, p, t, q, g undoshlari xarakterlidir. Tovushga taqlid so'zlarning oxiri uchun esa ko'proq s, sh, z, k, g, r, q, p, t, v kabi undoshlarning kelishi xarakterlidir: paq, par, vat-vat, guv-guv, vis-vis, tap-tap, chaq-chaq, viq-viq kabi.

Unli va undosh tovushlarning almashirilishi yoki qattiq yumshoqligi tovushga taqlid so'zlardagi kabi obrazli so'zlar ifodalagan ma'noga ham ta'sir qiladi.

Obrazli so'zlarning boshida b, d, j, p, s, ch, sh, g undoshlari, oxirida t, n, r, q undoshlari keladi. L, p, k tovushlari esa har uchala holatda ham kelaveradi: milt-milt, pildir-pildir, dik-dik, yal-yal, jilpong-jilpong kabi. Obrazli so'zlarning unlilar sistemasida tovushga taqlid so'zlarda ishlatilmaydigan ya, yu grafemalari ham mavjud. Bu esa obrazli so'zlarning tovushga taqlid so'zlardan farqini ko'rsatuvchi yana bir o'ziga xos xususiyati hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдурасулов Ё. Структура подражательных слов в узбекском языке: Автореф. дисс. ...канд. филол.наук. – Л., 1972.
2. Воронин С. Фоносемантические идеи в зарубежном языкознании – СПб.: Изд-во ЛГУ, 1990.-245 с.
3. Кононов А. Грамматика узбекского языка. – Ташкент: 1948.-С. 45-48.
4. Нуруллова А.А. Ономотопея в современном английском, русском и немецком языках: Автореф. дисс. ...канд. филол.наук. – Казан, 2013. – С. 12-16.
5. Qo'ng'urov A. O'zbek tilida tasviriy so'zlar. – Tashkent: Gos. izd. vo, 1966.- -254 b.

Олий таълим ва мактаб: муаммолар ва уларнинг ечими

профессор С.Солижонов
профессор Ш.С.Алимов

Андижон давлат чет тиллари институти

Аннотация: Мазкур мақолада таълим-тарбия самарадорлигини оширишдаги муҳим муаммолардан бўлган оила, мактаб, жамоатчилик ва

MUNDARIJA | TABLE OF CONTENTS | СОДЕРЖАНИЕ

1.	KIRISH SO'ZI Rustamov Dilshodbek Abduvaxidovich	4
2.	ЗАМОНАВИЙ ТЕРМИНОЛОГИЯ ВА ТЕРМИНОГРАФИЯНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ М.И. Умарходжаев	8
3.	СЎЗ ҲАҚИДАГИ ИЛМИЙ ТАЪРИФЛАР ТАРИХИДАН Сидикжон МУМИНОВ, Анваржон ЮЛДАШЕВ	9
4.	Some Thoughts on Language Teaching and Technology Christian Bonk	13
5.	Personalized Learning and Adaptive Learning Technologies: Tailoring Education for Every Learner Dr.Anand Binod Singh	15
6.	Artificial Intelligence, Technology and Teacher Competences Prof.Dr. Gonca Ekşi, Gulchehra Rahmanova	17
7.	ЛИНГВОСТРАНОВЕДЧЕСКИЙ ПОДХОД – ЗАЛОГ ПОНИМАНИЯ ТЕКСТА И КУЛЬТУРЫ СТРАНЫ ИЗУЧАЕМОГО ЯЗЫКА Марьяна Ольга Викторовна	22
8.	Использование на занятиях по РКИ креолизованных публицистических текстов, созданных для детей Урайчик Ксения Олеговна	25
9.	ТИПОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА МОРФОЛОГО- СИНТАКСИЧЕСКОЙ ПРИРОДЫ СУБОРДИНАТОРОВ В ГИПОТАКСЕМАХ ЯЗЫКОВ РАЗНЫХ СИСТЕМ Г.М.Хошимов	28
10.	Innovative Lexical Patterns in Modern English Vladimir I. Karasik Durdona Sh. Egamnazarova	34
11.	Taqlidiy so'zlarning fonetik xususiyatlari Ziyaev Avaz Ixtiyorovich Mohidil Sharipova	41
12.	Олий таълим ва мактаб: муаммолар ва уларнинг ечими профессор С.Солижонов профессор Ш.С.Алимов	44
13.	ZAMONAVIY LINGVISTIK KOGNITOLOGIYADA KONSEPT VA UNING TADQIQ ETISH METODLARI M.A.Abduvaliyev	49
14.	HOZIRGI INGLIZ TILIGA TURKIY TILLARDAN O'ZLASHGAN FE'LLARNING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI Vositov Valijon Abduvaxobovich	53
15.	Innovative Lexical Patterns in Modern English Vladimir I. Karasik Durdona Sh. Egamnazarova	56
1-SHO'BA. ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK YO'NALISHLARI.		